



UDK:94(575.1):902/904(092)

Olimjon KANIMKULOV,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: kanimkulov812310@gmail.com

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, PhD D.Karimova taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF LETTERS AND SCIENTIFIC CORRESPONDENCE OF ACADEMICIAN YAHYO GULOMOV IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL SCIENCES (USING THE EXAMPLE OF A HOME ARCHIVE)

Annotation

This article is about the correspondence of Academician Yahyo Gulyamov, which highlights the scientist's contributions to various aspects of the history of our country that are stored in archives and still remain unknown to the scientific community, including the training of scientific personnel, the preparation of the multi-volume work "History of Uzbekistan", information provided to influential magazines and newspapers of the former Soviet Union and our country, and various problems and discoveries in history and archeology, using the example of the home archive.

Key words: "History of Material Culture" journal, "Soviet Archaeology" journal, "Man and Science" international journal, M. Gerasimov, B.V.Andrianov, Institute of Ethnography, A.I. Terenozhkin, 4-volume book "History of Central Asia and Kazakhstan", John Entwistle, Dr. Kumar, Hideo Fuji

ЗНАЧЕНИЕ ПИСЕМ И НАУЧНОЙ ПЕРЕПИСКИ АКАДЕМИКА ЯХЁ ГУЛОМОВА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК (НА ПРИМЕРЕ ДОМАШНЕГО АРХИВА)

Аннотация

Данная статья посвящена переписке академика Яхё Гулямова, в которой освещается вклад учёного в различные аспекты истории нашей страны, хранящиеся в архивах и до сих пор остающиеся неизвестными научному сообществу, включая подготовку научных кадров, подготовку многотомного труда «История Узбекистана», предоставление информации влиятельным журналам и газетам бывшего Советского Союза и нашей страны, а также различные проблемы и открытия в истории и археологии, на примере домашнего архива.

Ключевые слова: Журналы «История материальной культуры», «Советская археология», международный журнал «Человек и наука», М. Герасимов, Б.В. Андрианов, Институт этнографии, А.И. Тереножкин, 4-томная книга «История Центральной Азии и Казахстана», Джон Энтвистл, д-р Кумар, Хидео Фудзи

AKADEMIK YAHYO G'ULOMOVNING XAT VA ILMIY YOZISHMALARINI IJTIMOY FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI (UY ARXIVI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqola akademik Yahyo G'ulomovning xat yozishmalari haqida bo'lib, unda arxivlarda saqlanayotgan, haligacha ilmiy jamoatchilikga noma'lum bo'lib qolayotgan mamlakatimiz tarixining turli jihatlariga, ilmiy kadrlar tayyorlash, ko'p tomlik "O'zbekiston tarixi" asarini tayyorlash, sobiq Ittifoq hamda mamlakatimizni nufuzli jurnal va gazetalariga berilayotgan ma'lumotlar, tarix va arxeologiyaning turli muammolari va kashfiyotlari borasidagi olimning xizmatlari uy arxivi misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Moddiy madaniyat tarixi" jurnali, "Sovetskaya arxeologiya" jurnali, "Inson va fan" nomli halqaro jurnal, M.Gerasimov, B.V.Andrianov, Etnografiya instituti, A.I.Terenojkin, 4 tomlik "O'rta Osiyo va Qozog'iston tarixi" kitobi, Jon Entwisl, doktor Kumar, Xideo Fudzi.

Kirish. Yahyo G'ulomov nafaqat yirik tashkilotchi, balki yetuk arxeolog-olim sifatida ham tanilgan bo'lib, uning o'tgan asrning 30–40-yillarida O'zbekiston bilan bir qatorda butun Sharq taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan sug'orish tizimlarini o'rganish borasida olib borgan tadqiqotlari bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda arxivlarda saqlanayotgan, haligacha ilmiy jamoatchilikga noma'lum bo'lib qolayotgan akademik olimning xat yozishmalariga e'tibor beradigan bo'lsak, unda mamlakatimiz tarixining turli jihatlariga, ilmiy kadrlar tayyorlash, ko'p tomlik "O'zbekiston tarixi" asarini tayyorlash, sobiq Ittifoq hamda mamlakatimizni nufuzli jurnal va gazetalariga berilayotgan ma'lumotlar, tarix va arxeologiyaning turli muammolari va kashfiyotlari haqida ekanligiga amin bo'lamiz[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yahyo G'ulomovning hayoti va ilmiy faoliyati bilan bog'liq faoliyati olimning shogirdlari A.Muhammadjonov, A.Asqarov va boshqalar o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan. Lekin akademik

Y.G'ulomovning qilgan ilmiy ishlari bo'yicha akademik olimning uy arxivi ma'lumotlari doirasida alohida tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu sabab Y.G'ulomovning o'sha davrdagi nufuzli davriy nashrlar, sobiq Ittifoq hamda chet eldagi yetakchi olimlari bilan ilmiy-ijodiy hamkorligiga oid xat yozishmalari haqida to'xtalishni afzal deb bildik. Ma'lumki, Y.G'ulomov ilmiy faoliyatida urushdan oldingi yillarida asosan, mahalliy gazeta va jurnallarda maqola va tezislar nashr etgan bo'lsa, 50 yillardan boshlab nafaqat mamlakatimizdagi, hatto, sobiq Ittifoq miqyosidagi gazeta-jurnallar, yirik ensiklopediyalar bilan ham hamkorlik qila boshladi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolaning ilmiy–nazariy asosi tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda xolisonalik, haqqoniylik, tarixiylik va hujjatli ravishda asoslanganlik tamoyillariga tayanadi. Maqolada, akademik Y.G'ulomov shaxsi, uning tarix fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ilmiy merosi haqidagi xizmatlari uy arxivi misolida umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Sobiq Sovet FA “Moddiy madaniyat instituti” ilmiy kotibi G.B.Fedorovning Y.G‘ulomovga yo‘llagan xatida, olimning “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asarini SSSR FA “Moddiy madaniyat tarixi” jurnali sahifalarida nashr etish uchun ruxsat so‘raganligini ko‘rishimiz mumkin[2]. Sobiq Ittifoqning “Sovetskaya arxeologiya” jurnali tahririyati tamonidan Y.G‘ulomovga yo‘llangan xatida[3], O‘zbekistondagi arxeologiya fanining 50 yillik taraqqiyoti haqida aniq tarixiy hujjatlar asosida, surat va izohlari bilan maqola yozib berishni so‘raydi. Jurnal tahririyati Y.G‘ulomovdan mazkur xatga imkon qadar ijobiy javob berishlarini so‘raydi. Y.G‘ulomovdan O‘zbekistondagi arxeologik tadqiqot natijalari haqida Moskvada chiqadigan “Inson va fan” nomli halarqo jurnal tahririyati ham maqola berishni so‘ragan[4]. Bu kabi nufuzli jurnal va maqolalardan kelgan xatlar mazmuniga e‘tibor bersak, aksariyat jurnal va gazeta muharrirlari Y.G‘ulomovdan tarix va arxeologiya bo‘yicha maqola berishligini so‘raganligiga amin bo‘lamiz. Shu bilan bir qatorda Y.G‘ulomov yirik ensiklopediyalarni yaratilishi doirasida ham faol qatnashgan.

Ayni vaqtda juda ko‘plab jurnal va gazeta nashrlari olimdan tarix, arxeologiya, etnografiya yo‘nalishlariga doir turli munozarali masalalarda aniqlik kiritib berishlari so‘rab ham murojaat qilganlar. Masalan, “Moddiy madaniyat tarixi” instituti tamonidan 1953-yil 25-aprelda Y.G‘ulomovga yo‘llangan xatda, arxeologiya fani yutuqlari va muammolari bo‘yicha “Sovetskaya arxeologiya” jurnalida maqola bilan ishtirok etishini so‘ragan[5]. “Sovetskaya arxeologiya” jurnali olimdan G.V.Shishkinning “Maroqandning joylashgan o‘rni” maqolasi hamda M.K.Pachosning Afrosiyob qadimiy devorlarining sxematik xaritasi masalasidagi mavjud noaniqliklarga oid qarashlariga o‘z munosabatini bildirishi hamda aniqlik kiritib berishligini so‘ragan[6]. Yuqorida biz Yahyo G‘ulomovning nufuzli gazeta va jurnallar bilan faol ijodiy hamkorlik olib borganligi haqida ayrim xat yozishmalarining keltirdik. Shuningdek, Yahyo G‘ulomovni sobiq Ittifoq doirasida o‘z davrining mashhur olimlari bilan faol ijodiy hamkorlikda faoliyat olib borganligini, arxivlar hamda olim xonadonida saqlanayotgan xat almashuvlaridan ham bilishimiz mumkin.

Mashhur tarixchi, arxeolog M.M.Gerasimovning Yahyo G‘ulomovga yozgan xatida, Yahyo G‘ulomov tamonidan Markazga jo‘natilgan o‘zbek arxeologlari haqida ma‘lumotlar olish mumkin. Masalan, M.Gerasimov Leningradga yuborilgan o‘sha vaqtdagi yosh tadqiqotchi R.Sulaymonovni bilimli, tirishqoqligidan xursand ekanligini aytgan holda, ushbu yosh tadqiqotchi ilmiy faoliyatini o‘z qo‘l ostida davom ettirishi hamda Moskva, Leningrad shaharlaridagi muzey fondlarida saqlanayotgan tosh davri kolleksiyalari bilan tanishish kerak ekanligini aytadi. M.Gerasimov tamonidan 1962-yil yuborilgan ushbu xatda R.Sulaymonovni arxeologiyada matematikadan foydalanishni yo‘lga qo‘yaayotganligidan mamnunligini bildiradi[7]. Yahyo G‘ulomovning sug‘orish tizimi tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlari hamda fikrlari doimo Markaz olimlarini ham qiziqishiga sabab bo‘lgan. SSSR Etnografiya institutidan 1955-yilda kelgan xatda, Yahyo G‘ulomovdan Moddiy madaniyat instituti va Etnografiya instituti hamkorligidagi yillik yakuniy hisobot yig‘ilishida Xorazmning sug‘orilish tarixi bilan bog‘liq yangi ma‘lumotlar haqida chiqish qilishni so‘ragan[8]. Xatda nafaqat Xorazm hududi, balki, O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridagi sug‘orish tizimi tarixi bilan bog‘liq yangiliklar haqida ma‘lumotlar aytishni so‘ragan.

Yahyo G‘ulomovning yirik tashkilotchi olim ekanligini Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyini o‘tkazish uchun qilgan harakatlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Avvalo, olim II tomlik “Afrosiyob” kitobini ma‘sul muharriri sifatida nashr ishlariga boshchilik qildi. Qator yillar davomida Afrosiyobning turli joylarida o‘tkazilgan arxeologik

tadqiqotlarda qatnashdi va ayrimlariga boshchilik qildi. Yahyo G‘ulomov ilmiy faoliyatida olim tamonidan yozilgan maqola, tezislarga e‘tibor bersak, aksariyati bevosita Samarqand shahri hududi bilan bog‘liqdir. Bu haqida tadqiqotimizning II bob ikkinchi rejasida batafsilroq to‘xtalib o‘tganmiz. Shunday bo‘lsa-da Yahyo G‘ulomovning Samarqandning qadimgi tarixi borasida olib borgan tadqiqotlari va bildirgan fikrlari doim ilmiy jamoatchilini qiziqitirib kelgan. Misol sifatida ikki holatni aytishimiz mumkin. Biri 1968-yili Kiyevdan mashhur arxeolog olim A.I.Terenojkin tamonidan Yahyo G‘ulomovga yuborilgan xat bo‘lib[9], unda A.I.Terenojkin Samarqandni qadimiyligi va ahamoniylar davrida paydo bo‘lganligi borasidagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlagani uchun Y.G‘ulomovga minnatdorchilik bildirganida ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchisi esa Toirjon Qo‘chqorovning “O‘zbekiston arxeologiyasining rivojlanishida - Vasiliy Afanaseyevich Shishkin” mavzusidagi nomzodlik ishida, V.A.Shishkinning Samarqand tarixini o‘rganishda Yahyo G‘ulomov faoliyatiga bergan yuqori bahosida ko‘rishimiz mumkin[10]. Unda tadqiqotchi “V.A.Shishkinga biror masalada murojaat qilsangiz, bordi-yu shu masalada to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmasa, u yashirmasdan bu masalada mutaxassis emasligini bildirib, Yahyo G‘ulomovga murojaat qilib, to‘liq ma‘lumot olish mumkinligini aytardi” deb yozadi. V.A.Shishkinning Yahyo G‘ulomov ilmiy salohiyatiga bergan yuqori bahosini O‘zR FA arxivlarida saqlanayotgan Tarix va arxeologiya institutining bayonnomalaridan ham bilishimiz mumkin.

Yahyo G‘ulomov tarix, arxeologiya, etnografiya yo‘nalishlarida ijod qilar ekan, bevosita arab, fors yozuvlarini bilishi qo‘lyozma manbalar bilan ishlashda ham qo‘l keladi. Buni biz Xiva shahri yodgorliklariga hamda Xorazm sug‘orilish tarixiga bag‘ishlangan asarlarni yozish chog‘ida foydalangan manbalar va arxeologik tadqiqotlarda duch kelgan maqbara, qabr va boshqa yodgorliklardagi yozuvlarni o‘qiganligida ko‘ramiz. V.M.Masson 1955-yil Yahyo G‘ulomovga yozgan xatida Zangiota maqbarasidagi qabrtosh bitiklarini o‘qib berishni so‘raydi[11]. Bugungi kunda milliy arxiv fondlarimizda hamda Yahyo G‘ulomovning xonadonida saqlanayotgan hujjatlar bilan tanishuv davomida Yahyo G‘ulomov arxeologik dala kundalıkları, maqolalari, bergan taqrizlarini ayrimlarini arab xat turida yozganligiga guvoh bo‘ldik. Yahyo G‘ulomovni yirik olim sifatida e‘tirof etilishini IV tomlik “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi” kitobini nashrga tayyorlash jarayonida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘sha vaqtdagi SSSR FA direktori A.L.Narochinskiy bu kitob yaratilish jarayonida Yahyo G‘ulomovdan ishtirok etishni, kitobni nashr etishdan oldin tahlil qilib berishni so‘raydi. Lekin Y.G‘ulomov bu kitob yaratilishida ishtirok eta olmasligi, buning uchun Moskva, Andijon, Dushanbe va Bishkek shaharlarida bo‘lib o‘tishi rejalashtirilayotgan muhokamalarda sog‘ligi sabab qatnasha olmasligini aytadi va kitob mualliflari orasidan o‘z familiyasini qo‘shmasliklarini so‘raydi[12]. Chunki, Yahyo G‘ulomov “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi” kitobi birinchi tomi yaratilishida ishtirok etgan edi. Buni “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi” kitobi birinchi tomi bosh muhariri akademik A.P.Okladnikov tamonidan 1976-yilda Yahyo G‘ulomovga yozilgan xat mazmunidan ham bilishimiz mumkin[13]. Xatda A.P.Okladnikov Yahyo G‘ulomovdan kitobning o‘ziga tegishli qismlarini iloji boricha may oyigacha topshirishni iltimos qiladi. Shu kabi holatni III tomlik “SSSR tarixi; qadim zamonlardan hozirgacha” kitobi nashr etilishida ham ko‘rishimiz mumkin[14].

Yahyo G‘ulomovning xonadonidagi hujjatlar bilan tanishish davomida, olimning tariximizning turli sohalariga qiziquvchi chet ellik olimlar bilan ham o‘zaro xat yozishmalari olib borganligiga guvoh bo‘ldik. Masalan, 1966-yil 30-avgust kuni chet ellik Jon Entvisl ismli fuqaro yurtimiz tarixi bilan qiziqib, Toshkent nomining kelib chiqishi,

yurtimizdan o'tgan karvon yo'llarining yo'nalishlari va turli etnonimlarning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar berishni so'rab xat yuboradi[15]. O'z FA nomidan Yahyo G'ulomov bu xatga batafsil javob yozgan holda xat yuboradi. Hindistonlik doktor Kumar o'sha vaqtlarda Rajpurda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Kushon davriga oid madaniyat izlari topilishi natijasida, Kushon davri tarixi bilan bog'liq yurtimizdagi yodgorliklar haqida to'liqroq ma'lumot berishni so'rab xat yo'llaydi[16]. Doktor Kumar xatiga javob berar ekan, Yahyo G'ulomov Kushon davri bo'yicha hozircha o'rganilgan eng katta arxeologik obyekt Xolchayon ekanligini aytadi. Bu bo'yicha o'zini qiziqtirgan savollarga yodgorlikni batafsil o'rgangan prof. G.A.Pugachenkovga murojaat qilishni aytadi.

Yaponiyadagi Nagata universiteti professori Xideo Fudzi tamonidan O'zFA yuborilgan xat mazmuniga ko'ra, professor Xideo Fudzi Buxorodan Urganchga qarab 180 km masofadagi Qoraqum sahrosida qadimgi shahar qoldiqlarini o'rganganligini yozadi[17]. Bu qadimiy shahar tarixiga qiziqishini katta ekanligini yozib, Xorazm hududlarida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarga yaqin bo'lganligi sababli, bu arxeologik tadqiqotlar bo'yicha Yahyo G'ulomovdan batafsilroq ma'lumot olish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatishni so'raydi[18].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Yahyo G'ulomov hayoti davomida arxeologik

tadqiqotlarda qatnashish bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari gazeta, jurnallarda doimiy maqolalari bilan ishtirok etib turgan. O'sha davrda Markazdagi yirik olimlar bilan ilm fanning turli masalalarida o'zaro xat almashuvlari olib borgan. Bu xatlar mazmuni yuqorida aytganimizdek, tarix, arxeologiya, etnografiya yo'nalishlarining turli muammo, yutuqlari, ilmiy kadrlar va kelajak rejalar bilan bog'liq mazmunda ekanligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Milliy arxivga 2019-yil 13-noyabrda doimiy saqlanish uchun topshirilgan Yahyo G'ulomov faoliyati bilan bog'liq hujjatlar F-2883, R-1 raqami bilan ro'yxatga olingan bo'lib, ushbu hujjatlar 89 ta yig'majildni tashkil qiladi. Birgina akademik olimning uy xonadonida saqlanayotgan xatlarini o'zi turli mavzularda bo'lib, nufuzli ilmiy tadqiqot muassasalaridan tortib, yirik gazeta-jurnallargacha, yirik olimlardan tortib, biror bir tarixiy savol yoki muammoga javob izlagan oddiy insonlarning yo'llagan xatlarigacha uchratish mumkin. Maqolada imkon qadar Moskva, Leningrad, chet ellardan kelgan yoki yuborilgan (Yahyo G'ulomov tamonidan) xatlar mazmuniga e'tibor qaratdik. Chunki, Yahyo G'ulomov respublikamizda tarix, arxeologiya fanlari bilan bog'liq biror yutuq va muammolar masalasida ma'sul rahbarlar, ilmiy tadqiqotchi olimlar, oddiy fuqarolar bilan ham muntazam xat yozishmalari olib borgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zMA, F-2883, R-1, 83-yig'majild (Yahyo G'ulomovning shaxsiy hujjatlari); Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi. Fond-1, Ro'yxat-2-1, delo-62. (Yahyo G'ulomovning shaxsiy hujjatlari.); Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti arxivi, F-54, R-2, D-33; Maqola muallifining 2022 yil mart-iyun oylari davomida Yahyo G'ulomovning shaxsiy uy arxivi hujjatlari bilan tanishuvi.
2. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (N.Ya.Marra nomidagi "Moddiy madaniyat instituti" ilmiy kotibi, t.f.n, dos. G.B.Fedorovning 1949 yil 7 iyulda №163, xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
3. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (SSSR FA Arxeologiya instituti qoshidagi "Sovetskaya arxeologiya" jurnali bosh muxariri A.I.Melyukovning 1967 yil 13 yanvarda yozgan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
4. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. ("Inson va fan" halqaro jurnali bosh muharriri E.Etingofning 1968 yil 28 iyulda Ya.G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
5. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (N.Ya.Marra nomidagi "Moddiy madaniyat instituti" Leningrad bo'limi rahbari M.M.D'yakonovning 1953 yil 25 aprelda yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
6. Sheraliyevich K. O. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – T. 28. – №. 1. – P. 1735-1740.
7. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (M.M.Gerasimovning 1962 yil 16 sentyabrda Ya.G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
8. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (Etnografiya instituti direktori S.P.Tolstovning 1955 yil 18 martda Ya.G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
9. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (Arxeolog olim A.I.Terenokinning 1968 yil 29 aprelda Yahyo G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
10. O'zFA Asosiy kutubxonasi. RD-3722. (Toirjon Qo'chqorovning "O'zbekiston arxeologiyasining rivojlanishida - Vasiliy Afanasevich Shishkin" . Tarix fan.bo'yicha. nomzod. diss.- Toshkent, 1975. –143 b)
11. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (V.M.Massonning 1955 yil 16 sentyabrda Ya.G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
12. Djuraev, I. (2019). On the question of the relationship of the population of the steppes Eurasia and Central Asia in the bronze age. Theoretical & Applied Science, (11), 658-661.
13. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. ("O'rta Osiyo va Qozog'iston tarixi" kitobi birinchi tomi bosh muharriri akademik A.P.Okladnikov tamonidan 1976 yil 20 dekabrda Yahyo G'ulomovga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
14. Dilshodbek S., Sheraliyevich K. O. Yahyo G'ulomovning Xorazm tarixini o'rganishdagi o'rni //Conference of innovative horizons in Science & Engineering. – 2025. – T. 1. – №. 2. – S. 124-130.
15. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (Y.G'ulomovning angliyalik Jon Entvislga 1966 yil 10 sentyabrda yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda)
16. Yahyo G'ulomovning uy arxivi.(Y.G'ulomovning Hindistonlik doktor Kumarga yo'llagan xati ma'lumotlari asosida keltirilmoqda, xat yuborilgan sana yozilmagan)
17. Yahyo G'ulomovning uy arxivi. (Yaponiyadagi Nagata universiteti professori Xideo Fudzi tamonidan O'zFA direktori A.S.Sodiqovga yuborilgan xat ma'lumotlari asosida keltirilmoqda, xat yuborilgan sana yozilmagan)
18. Izoh. Yahyo G'ulomov xonadonida Yaponiya, Xitoylik olimlar bilan bo'lgan xat yozishmalari va suratlar mavjud. Masalan, 1964 yil Farg'ona hududlarida. Jumladan, Marhamat atrofida 1964-1965 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda yaponiyalik arxeolog olim Kayama ishtirok etganligi olingan suratlardan ma'lum.